

Tagma'no – matn semantikasi muammosi sifatida

Yuldasheva Hadiyaxon

FarDU magistratura bo'limi,

lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi

II-kurs magistranti

Tilshunoslikda tagma'no hodisasining tipologik va funksional xususiyatlari hali to'la ma'noda o'z yechimiga ega bo'lganicha yo'q. Bu haqda quyidagi ilmiy manbada ham fikrlar bildiriladi. Jumladan, "...tagma'noning umumiy nazariyasi hali mukammal shakllanganicha yo'q. Tagma'noning umumqabul qilingan definitsiyasi mavjud emas. Tagma'no va unga yondosh hodisalar chegarasi aniq belgilanmagan. Matn mazmuni va matndagi fikrlar implikasiya, presuppozitsiya, oldindan ma'lum bo'lgan bilimlar, matn mazmuniy tarkibidagi fikrlar strukturasida tagma'noning o'rni va roli belgilanmagan"¹. Bu hodisa to'g'risida gapirishdan avval uning turlicha talqiniga oid qarash va nazariyalar to'g'risida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. "Tilshunoslarning ishlarida tagma'no tipologiyasi, maqomi va uning mohiyati bilan bog'liq yagona qarash mavjud emas. Tagma'no konsepsiyasi bo'yicha e'tirof etilgan qarashlar orasida uning semantik xususiyatlari bilan bog'liq fikr, mazmun, axborot, shuningdek, uning tavsifi bilan bog'liq chuqur fikr (глубокая мысль²), yashirin, noaniq kabi terminlarni izohlash orqali tagma'no hodisasi mohiyatini ochib berishga harakat qiladilar"³.

Tagma'no hodisasi bo'yicha tilshunoslikda turlicha fikrlar bildirilgan bo'lib, ularning aksariyati matn tarkibidagi muallif tomonidan yashirin tarzda ifodalangan fikrlar, deb tushuntiriladi. Fikrning yashirin ifodasi faqat tagma'noga tegishli bo'lmaganligi uchun

¹ Лелис Е.И. Подтекст как лингвоэстетическая категория в прозе А.П.Чехова. – Ижевск: Удмуртский университет, 2013. – С. 15.

² Русско-узбекский словарь. – М.: Государственное изд-во иностранных и национальных словарей, 1954. – С. 134.

³ Семочкина Ю.В. Подтекст как системный элемент семиотической структуры англоязычного художественного текста (на материале произведений У.Фолкнера): Автореф. канд. филол. наук. – Самара, 2013. – С. 7.

bunday ta'rif tadqiqotchilarni chalg'itishi mumkin. Fikrning yashirin ifodasi presuppozitsiya, inferensiya, allyuziya kabi fikrni yashirin ifodalashga xizmat qiluvchi hodisalarda ham kuzatiladi. Bu fikrni tagma'no va unga yondosh hodisalarga nisbatan qo'llash sohada shakllanayotgan yangi ilmiy paradigmani to'g'ri belgilash bilan barobardir. Biroq tagma'no hodisasi yuzasidan turlicha talqinlarning mavjudligi hali bu mazmuniy paradigmaga xos bo'lgan ilmiy tushuncha va qarashlar to'liq emasligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, bu hodisaga oid turlicha qarashlar turli fanlar nuqtayi nazaridan bo'lgani uchun ham bir-biridan o'zaro farqlanadi. Shuning uchun ham ushbu tadqiqotning mazkur qismida dastlab biz tagma'no hodisasi bilan bog'liq naayrim fikr va qarashlarga to'xtalib o'tamiz. Tagma'no unga yondosh bo'lgan boshqa hodisalar singari matnning mazmuniy sathiga xos hodisa sifatida qaralishi kerak. Unga nafaqat matnning mazmuniy sathi, balki quyi mazmuniy sathga xos hodisa deb qarash kerak. Shundagina tagma'noni to'la ma'noda badiiy mazmuniy strukturaning bir qismi sifatida e'tirof eta olamiz.

Ilmiy adabiyotlarda "tagma'no" termini ifodalagan tushunchalar talqinida uni "fikr" atamasining sinonimi sifatida izohlash ko'zga tashlanadi. Jumladan, V.Y.Mirkin, A.M.Kamchatnov, M.S.Berejkovalar⁴ "tagma'no" va "fikr" terminlarini sinonim atamalar sifatida izohlaydilar. Aynan tagma'noga oid tadqiqotlarda "...tagma'no" ("подтекст" – ishning bundan keyingi barcha qismlarida tagma'no atamasidan foydalaniladi) termini o'rnida "fikr" atamasi dubletlashgan variant sifatida talqin qilinadi. Filologiya sohasidagi an'anaviy tushunishga asosan tagma'no fikr so'zining parallel qo'llanishi, olimning nuqtayi nazariga ko'ra, fikr bu real nutqqa xos ifodaning maqsad va mohiyati⁵ni tashkil qiladi.

⁴ Мыркин В.Я. Текст, подтекст и контекст // Вопросы языкознания. – 1976. – № 2. – С. 86-93; Камчатнов А.М. Подтекст: термин и понятие // Научные доклады высшей школы. Филологические науки. – 1988. – № 3. – С. 40-45; Бережкова М. С. Семантика поэтического текста и подтекст // Исследования по семантике. – Уфа, 1984. – С. 141-145.

⁵ Мыркин В. Я. Текст, подтекст и контекст // Вопросы языкознания. – 1976. – № 2. – С. 86-93.

Tagma'no va fikr terminlarini sinonim deb qarash rus tili xususiyatlari asosida shakllangan. Biroq o'zbek tilining tabiatiga ko'ra tadqiqotchilar tomonidan "fikr" termini mantiqiy kategoriya birligi sifatida qabul qilingan. Gapga esa lisoniy kategoriya birligi sifatida qaraladi. Ayni paytda til sathi birliklari tizimida gap sintaktik hodisa va birlik sifatida o'rganib kelinmoqda. Tilshunoslikda pragmalingsvistika haqidagi nazariyaning paydo bo'lishi tagma'no hodisasi bilan bog'liq tadqiqotlarga yo'l ochadi. Endi tagma'noni fikr so'ziga sinonim sifatida qarash qanchalik darajada to'g'ri bo'lishini izohlashga ehtiyoj yuzaga keldi. Jumladan, matnga ham mikromatn, ham makromatn sifatida qaraladigan bo'lsa, uning eng kichik birligi sifatida gap olinadi. Lingvistik birlik deb qabul qilingan gap tarkibida fikr yoki bir necha fikrlar mavjud bo'ladi. Bu uning struktur turiga nisbatan belgilanadi. Bir sodda gapda bitta fikr, qo'shma yoki ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida esa bir necha fikr bo'lishi mumkin. Mikromatn yoki makromatn tarkibida esa fikr bitta emas, balki bir necha miqdorda bo'lishi mumkinki, ularning qaysi biri tagma'no, qaysi biri yashirin ifoda turi yoki u fikrlarning qaysi biri tagma'noga yondosh hodisalar tarkibiga kirishi hali o'rganilgan hodisalar emas. Shuning uchun rus tilshunosligida "podtekst" hodisasi bilan shug'ullangan olimlarning "podtekst va fikr" terminlari sinonimdir, tarzidagi qarashlari rus tilining o'ziga xos tabiati asosida shakllangan, deb hisoblash mumkin.